

# **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISH**

## **TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Xolmo‘minova Bahora Abdujalolovna,  
Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi  
Annotasiya*

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish orqali kognitiv faoliyatini rivojlantirishga oid interfaol o‘yinlar va usullarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kasbga yo‘naltirish, kasb, kognitiv, tarbiya, omillar, usullar, tizimli yondashuv, axborot, baholash, bashorat, rivojlanish, kasbiy ma’lumot berish.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОФОРИЕНТАЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

*Холмўминова Баҳора Абдужалоловна  
Преподаватель Джизакского областного центра педагогического  
мастерства*

### **Аннотация**

В данной статье даны рекомендации по использованию интерактивных игр и методик развития познавательной деятельности через профориентацию учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** профориентация, карьера, когнитивное, образование, факторы, методы, системный подход, информация, оценка, прогнозирование, развитие, профессиональная информация

*Kholmominova Bahora Abdujalolovna,  
Teacher of the Jizzakh regional Center of Pedagogical Excellence*

### **Abstract**

This article provides recommendations for the use of interactive games and techniques to develop cognitive activity through career guidance for primary school students.

**Key words:** pro-orientation, career, cognitive, education, factors, methods, system approach, information, assessment, forecasting, development, professional information

Bugungi kunda o‘quvchi yoshlarni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish ta’lim tizimi oldidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasdi Prezidentining 2022- yil 11- maydagि PQ- 241-sonli “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimi takomillashtirilmoqda. Qarorda 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quv rejasiga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo‘lgan turli kasblar to‘g‘risidagi tushunchalar berish nazarda tutilgan.<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasdi Prezidentining 2024- yil 2- fevraldagи PQ- 53-sonli “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimi takomillashtirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarni erta yoshdan boshlab biror bir kasbga yo‘naltirish vazifasini oldimizga pirovard maqsad qilib quyadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o‘quvchilarni kasb tanlashlariga qiziqtira olishi lozimdir. Kasbga yo‘naltirish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda dars mashg‘ulotlari, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o‘yin, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasdi Prezidentining 2022- yil 11- maydagи PQ- 241- sonli “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kasb tanlashda biroz qiynaladilar aniq to‘xtamga kela olmaydilar, aniq bir kasbni tanlashdan uzoq turadilar. Biroq ular o‘rtasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan kasb tanlash ishi shunday bir asos bo‘lishi kerakki, yuqori sinflardagi o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari, o‘y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini texnologiya darslarida kasga yo‘naltirishda tanqidiy fikrleshga o‘rgatish, mehnatning har xil turlariga qiziqishni orttirish bilan birga maxsus ko‘nikma va malakaga ham ega bo‘ladi. O‘quvchilarga zamonaviy kasblar haqida ma’lumot berish bilan birga ularning afzalliklari, farqlari, xususiyatlari, insonga beradigan imkoniyatlarini sekin-asta tushuntirib borish lozim. Bu o‘rinda darslarda turli interfaol strategiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilar qobiliyatini rivojlaniradi, layoqatini sinab ko‘radi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarni faollashtirish uchun kasbga yo‘naltiruvchi didaktik o‘yinlardan namunalar keltirib o‘tamiz. Boshlang‘ich sinflarda “Harakatlarga qarab kasni tanib ol”, “Ekskursovod gid”, “Men kimman?”, “Bozorda”, “Sozli tasavvur”, “Fikrimni davom ettir”, “Sehrli xaltacha”, “Do‘kon” kabi o‘yinlar orqali kasbiy tushunchalarni shakllantirish mumkin.

O‘quvchilarni kasblarga bo‘lgan qiziqishini yana oshirish maqsadida “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Maqsad: Kasblar olamining turli-tumanligi to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish, kasblar nomlarini bilish va o‘quvchilar bilimlarini boyitish.

### **“Kasblar alifbosi” mashqi**

Maqsad: Ishtirokchilarga mavjud bilimlari asosida turli kasblar bilan taqqoslab ko‘rishga o‘rgatish, harflarni va shu harfga mos guruh hamda kasb nomini o‘rganish.

Mashqning borishi: Trening ishtirokchilari to‘rt guruhga bo‘linib olishadi. Guruhlar o‘zlariga berilgan harflarga kasb nomlarini topib yozishlari kerak. Har bir

guruh o‘z taqdimotini tayyorlaydi va kasblar nomlarini o‘zlariga berilgan harflar bo‘yicha topadilar. Agar taqdimot qilayotgan guruh kasb nomlarini topishda qiyalsalar boshqa guruh ishtirokchilari tomonidan to‘ldiriladi. Belgilangan vaqt ichida bajara olmagan guruhga rag‘bat berilmaydi. Boshqa guruhlar o‘z variantlarini taklif qilishi mumkin. Har bir topilgan kasb uchun alohida ball beriladi. Eng ko‘p kasb nomini topgan guruh g‘olib deb topilib rag‘batlantiriladi. Xulosa o‘rnida trener qolib ketgan harflarga mos kasblar nomlarini aytib mashg‘ulotni yakunlaydi.

### **“Sozli tasavvur” didaktik o‘yini**

Sinf o‘quvchilari 4 guruhga bo‘linib olishadi va o‘qituvchi ularga kasb nomlari yozilgan kartochkalarni taqdim qiladi. Guruhlar o‘zlariga berilgan kartochkalardagi kasb nomlariga jiddiy e’tibor qaratishadi hamda shu kasbga mos qo‘sishq topib kuylashlari shart. Qo‘sishq kuylash bilan birga shu kasbni aks ettiruvchi rasm chizadilar. Guruhlar belgilangan vaqt ichida topshiriqni bajradilar. Eng chiroyli qo‘sishq kulagan va rasm chizgan guruh g‘olib deb topiladi.

Agar kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlarining tarbiyaviy maqsadiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak bola biror bir faoliyat bilan shug‘ullanishi jarayonida mehnatni qadrlashga hamda o‘zlaridan kattta insonlarning mehnatini, kasbini hurmat qilishga o‘rganishadi. Zamonaviy dunyoda o‘quvchilar kasblarning ahamiyati va muhimligini idrok etishi lozim. Demak, o‘quvchilarda kasbiy majburiyatlar, masu’liyatlilik, tartiblilik kabi sifatlarni tarbiyalash muhim hisoblamadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘quvchilarni boshlang‘ich sinflardan boshlab kasga yo‘naltirish kognitiv faoliyatning rivojlanishi bilan namoyon bo‘ladi hamda jamoada foydali mehnat qilishiga, kelajakda mukammal kasb egasi bo‘lishiga zamin tayyorlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasdi Prezidentining 2022- yil 11- maydagi PQ- 241- sonli “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori
2. A.Jalilov “Kasb qanday tanladi?”- Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2010
3. B.Xolmo‘minova // “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasga yo‘naltirish jarayonida kognitiv faoliyatni rivojlantirish” Maktab va hayot ilmiy -metodik jurnali. -Toshkent 2022, №7
4. B.Xolmo‘minova // “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish” “Pedagogika” Ilimiy- metodik jurnali.- Toshkent 2022 yil №-6
5. P.Xolmatov va boshqalar. “Kasb tanlash xususiyatlari”-Toshkent, 2022